

**KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRLIKNI RIVOJLANTIRISH  
YO'NALISHLARI**

*Feruza Qurbonova*

*QarDTU 2-bosqich talabasi*

**Annotasiya:** ushbu maqolada kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlanishning bugungi holati, YaIM, eksport va sanoat kabi makroiqtisodiyot ko'rsatkichlaridagi ulushi tahlil qilingan. Shuningdek, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlanirishning asosiy yo'llari bo'yicha takliflar ilgari so'rilgan.

**Kalit so'zlar:** xususiy tadbirkorlik, kichik biznes, eksport, sanoat, o'zini-o'zi band qilish, bozor infratuzilmasi, samaradorlik.

**Аннотация:** В данной статье анализируется современное состояние развития малого бизнеса и частного предпринимательства, его доля в таких макроэкономических показателях, как ВВП, экспорт и промышленность. Также ранее запрашивались предложения по основным путям развития малого бизнеса и частного предпринимательства.

**Ключевые слова:** частное предпринимательство, малый бизнес, экспорт, промышленность, самозанятость, рыночная инфраструктура, эффективность.

**Abstract:** This article analyzes the current state of development of small business and private entrepreneurship, its share in macroeconomic indicators such as GDP, exports and industry. Also, suggestions on the main ways of developing small business and private entrepreneurship were previously requested.

**Keywords:** private entrepreneurship, small business, export, industry, self-employment, market infrastructure, efficiency.

O'zbekistonda ijtimoiy yo'naltirilgan bozor iqtisodiyotini barpo etishning asosiy maqsadlaridan biri kichik biznesni ustuvor darajada rivojlanirishdan iborat. Bu maqsadni amalga oshirish uchun bosqichma-bosqich iqtisodiy islohotlar

## ***Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi***

---

o'tkazilib kelinmoqda, kichik biznesning rolini oshirish uchun yirik institutsional asoslar yaratildi. Kichik biznes faoliyatini tashkil etish, erkin faoliyat yuritishini kafolatlovchi huquqiy-me'yoriy hujjatlar, kichik biznesga ko'maklashuvchi bozor infratuzilmasi shakllantirildi. Natijada bugungi kunga kelib, kichik biznes sub'ektlari mamlakatimiz iqtisodiyotining barcha jabhalarida, mashinasozlik mahsulotlarini ishlab chiqarishda, iste'mol tovarlari, qishloq xo'jaligi va oziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqarishda, servis xizmatlari ko'rsatish va turizm kabi sohalarda faoliyat ko'rsatmoqdalar. Mamlakatimizda qisqa davrda to'plangan tajribalarimiz kichik biznes barqaror iqtisodiy o'sishning muhim omili ekanligini isbotladi. Ayniqsa, mamlakat iqtisodiyotida chuqur tarkibiy o'zgartirishlar va diversifikatsiya sharoitida milliy iqtisodiyotimizni barqaror rivojlanishi, uning raqobatbardoshligini oshishi hamda yuqori makroiqtisodiy ko'rsatkichlarga erishishimizda kichik biznes muhim omil bo'lib xizmat qilmoqda.

Mamlakatimizda kichik biznesni rivojlantirish bo'yicha to'plangan tajribalar shuni ko'rsatadiki, korxonalarning raqobatdoshlik darajasini oshirish ularning o'z faoliyatları davomida kengayib, yiriklashib borishini taqozo etadi. Lekin, kichik biznes sub'ektlarini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash maqsadida belgilangan imtiyoz va yengiliklarga ega bo'lish imkonini beruvchi korxonalarning miqdoriy chegaralari ayrim hollarda ushbu jarayonlarga to'sqinlik qilishi mumkin.

O'tgan davr mobaynida mamlakatimizda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish darajasining yuksalishi, kichik biznes subyektlari uchun yaratilgan qulay shart-sharoitlar natijasida iqtisodiy salohiyati ortgan ko'plab korxonalar mazkur imtiyozlardan foydalanishni davom ettirish maqsadida o'z xodimlari sonini belgilangan miqdoriy chegara doirasida saqlab qolishga harakat qilmoqdalar. Bu esa, ularning yiriklashish jarayoniga to'sqinlik qilmoqda.

O'zbekiston Respublikasida kichik biznes subyektlari rivojlanishi mustaqillikka erishilgan davrdan boshlab hozirgi kungacha ma'lum bosqichlarni bosib o'tdi. Salkam 30 yil davomida kichik biznes sub'ektlari rivojlanishi borasida bir qator me'yoriy hujjatlar, huquqiy asoslar yaratildi.

Kichik biznesning asosiy xususiyatlaridan biri mamlakatning iqtisodiy

## **Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi**

rivojlanishi uchun zarur bo‘ladigan asosiy ko‘rsatkichlarni qisqa muddat ichida ta’minlab berishi bilan ajralib turadi. Ya’ni kichik biznes mamlakat ichki bozorida taqchil bo‘lgan tovar va xizmatlar bilan to‘ldiradigan, iqtisodiyotning tarkibiy negizini belgilab beradigan eng muhim soha hisoblanadi.



### **1-rasm. Kichik biznesga bo‘lgan e’tiborning iqtisodiy sabablari**

Fikrimizcha, Kichik biznes mamlakatning iqtisodiy salohiyatini ko‘tarishi, davlatning muvaffaqiyatli rivojlanishi va gullab-yashnashining o‘lchovi bo‘lganligi uchun O‘zbekistonda ham kichik biznesning rivojlanishini rag‘batlantirishga alohida e’tibor qaratilgan. Respublikamizda kichik biznesni rivojlantirish bugungi kunning asosiy ustivor vazifasidir.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI**

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 21 apreldagi “Tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlash tizimini takomillashtirish, ishbilarmonlik muhitini yanada yaxshilash bo‘yicha qo‘sishimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida” gi PQ-5087 sonli Qarori
2. O‘zbekiston Respublikasining “Tadbirkorlik faoliyati erkinligining kafolatlari to‘g‘risida”gi Qonuni (yangi tahriri), 2012 yil 2 may.

## ***Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi***

---

3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 27 martdagи “Oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish ijtimoiy dasturlari doirasida amalga oshiriladigan qo‘sishimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-5041 sonli Qarori
4. Пардаева Б. “Состав доходов и социальная защита населения”. 19 -е Международное Плехановские чтениЙ. М.:2006 , с32-33.;
5. Разумов А.А. Россия: подготовка стратегии борьбы с бедностью, анализ и методологические подходы. – М., 2001. С. 15.
6. Райсин В.Й. Модели планирования уровня жизни. – М. “Экономикс”, 1987, стр 42-60
7. Saidov K.S. va boshqalar. Sotsial iqtisodiyot -Т.: “O’zbekiston”, 2006. 365;